

## NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA OBRAZ MASALASI TALQINI (“QO‘L” HIKOYASI ASOSIDA)

Muxlisa Sadullayeva

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o‘zbek tili o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada badiiy obraz tushunchasi va uning o‘ziga xos spetsifik xususiyatlari tadqiq qilingan. Nazar Eshonqul falsafasi mohiyati va uning ijod laboratoriyasi haqida fikr yuritilgan. Yozuvchi hikoyalaridagi badiiy obrazlar va ularning missiyasi tahlil qilingan. Ushbu maqola hikoyada obrazlar tasnifi va talqin muammosini yozuvchi Nazar Eshonqulning “Qo‘l” hikoyasi misolida o‘rganishni ko‘zda tutadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Badiiy obraz, konkretlik, metaforiklik, assotsiativlik, ratsional va emotsional birlik, Salom tegirmonchi obrazi, nafs motivi*

Badiiy asar asos negizini tashkil qiladigan obraz tushunchasi qadimdan va hozirga qadar san’atning eng asosiy elementi hisoblanadi. Zotan, badiiy obraz bu san’at asarining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi asosiy vositadir. Badiiy obraz borliqning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan aksi. Badiiy obrazning umumiy jihatlariga ta’rif bergan rus olimi Beliniskiy badiiy obraz nafaqat hayotni qayta tasvirlab beradi, balki hayotni baholash orqali anglash maqsadida muallif uchun uning xarakterli jihatlarini ham ko‘rsatishini isbotlashga harakat qilishini ta’kidlagan.

Adabiyotshunoslikda badiiy obraz masalasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, Izzat Sulton<sup>1</sup>, Abdulla Ulug‘ov<sup>2</sup>, Dilmurod Quronov<sup>3</sup>, Uzoq Jo‘raqulov<sup>4</sup> shular jumlasidandir. Adabiyotshunos olim Izzat Sulton badiiy obraz tushunchasiga shunday ta’rif beradi: “Badiiy asarda ozmi-ko‘pmi tafsilot bilan tasvir etilgan personaj obraz yoki xarakter deb ataladi. Xarakter(obraz) — insonning tipiklashtirilgan va individuallashtirilgan tasviri. Xarakter kishilarning ma’lum toifasiga xos xususiyatlarni ma’lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishilarning sifatlarini yorqinlik bilan ifoda etadi. Xarakterda yozuvchining kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yaqqol ko‘rinadi.”<sup>5</sup> Badiiy obraz o‘zida aql va hisni birlashtirgani uchun u ratsional va emotsional birlik hisoblanadi. Badiiy obrazdagi ratsional jihat - asardagi obraz orqali ijodkor o‘zini qiynagan masalalarni badiiy idrok etishi va shu obrazlar orqali o‘zi anglagan haqiqatni badiiy konsepsiya tarzida ifoda etish. Obrazdagi bu tushunchalar kitobxonga ta’sir qilish jarayonida emotsional vaziyat yuzaga keladi.

<sup>1</sup> Darslik. Adabiyot nazariyasi Izzat Sulton, “O‘qituvchi” NM1U, 2005.

<sup>2</sup> Darslik. ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI Abdulla Ulug‘ov, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2017

<sup>3</sup> Darslik. Adabiyotnazariyasi asoslari/Dilmurod Quronov.- Toshkent: Akademiya nashri, 2018.-480b.

<sup>4</sup> Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Тошкент: Фафур Фулом, 2015

<sup>5</sup> Darslik. Adabiyot nazariyasi Izzat Sulton, “O‘qituvchi” NM1U, 2005.103-bet.

Adabiyotshunos olim D.Quronovning badiiy obraz tasnifiga doir izlanishlarini alohida e'tirof etish lozim. Olim badiiy obrazni quyidagicha tasniflaydi: "Ijodkor estetik ideali bilan munosabatiga ko'ra ijobiy va salbiy obrazlar, ijodiy metodga ko'ra realistik, romantik, syurrealistik va b., yaratilish usuliga ko'ra fantastik, grotesk; xarakter xususiyatlar va estetik belgisiga ko'ra tragik, satirik, yumoristik obrazlar farqlanaveradi" [Quronov 2018, 109].<sup>6</sup> Umumlashtirish darajasiga ko'ra badiiy obrazlar ikki jihatdan tasnif qilinadi: Birinchisi ko'proq inson obraziga tatbiqan bo'lib, individual obrazlar, xarakter va tipik obraz (tip) ga ajratiladi. Umumlashtirish darajasiga ko'ra ikkinchi jihat-muayyan shaklda turg'un holatidagi badiiy obrazlar sanalib, asardan asarga, davrdan davrga, ko'chib o'tish xususiyatiga ega motiv, topos, arxitep deb yuritiluvchi badiiy obrazlardir. Masalan, "armon", "orzu", "sog'inch", "yomg'ir", "soya" kabi motivlar bir yoki bir nechta ijodkorning asarlarida qaytarilib turadi, lekin har qaysisida alohida mazmun kasb etadi. Badiiy obrazning o'ziga xos spetsifik xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- Konkretlilik
- Metaforiklik
- Assotsiativlik

Badiiy obrazning o'ziga xos xususiyati konkretlik bo'lib unda aniq bir odam qiyofasi gavalantiriladi va unga ijokor tomonidan muayyan ta'rif beriladi. Individual xususiyatlari tasvirlanadi. Masalan, Nazar Eshonqulning "Qo'l" hikoyasidagi Salom "tegirmonchi" obrazi. Uni muallif "bilimsiz, juda mehnatkash, ziqna, jasur, baquvvat panjali, o'zini gunohkor deb hisoblaydigan" inson sifatida ta'riflaydi. Salom tegirmonchi obrazining o'zini gunohkor deb sanashiga uyidan jahl bilan cho'lga ketib qolgani va qaytganida otasi vafot etgani voqeasini asos qilib keltirgan, bu "gunohkor" ifodasining ta'sirchanligini oshirgan. Azim oqsoqol ismli obrazni esa biroz takabbur, shuhratparast, bolalarni uradigan berahm, nafsiga qul, maktabda 30 yil ishlagan bo'lsa-da ma'naviyatdan yiroq odam", deb xarakteristika bergan. Mulla Keldiyor obrazini "militsiya xodimi kabi kuzatuvchan, oshni sevadigan, soxta dindor, ikkiyuzlamachi inson qiyofasida tasvirlagan. Rajab cho'pon – "sodda, mehnatkash, befarq inson" deb ta'riflangan. Panji muallim personaji esa qo'pol, qo'rs, to'g'riso'z, qari, shang'i kabi sifatlarga ega obraz. Muallif obrazlarni sifatlash orqali konkret shakl va xarakter yaratgan.

Badiiy obrazning yana bir xususiyati metaforiklik sanaladi. Bu tushunchani "o'xshashlik" bilan bog'lab qo'yish noto'g'ri. Uni kengroq ma'noda tushunish kerak. Ya'ni "metaforiklik" deganda badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilish, san'atga xos fikrlash yo'sini tushuniladi. Yozuvchi hech kim ahamiyat bermaydigan o'xshashlikni kashf qilishi mumkin. Jumladan, Nazar Eshonqulning "Qo'l" hikoyasidagi "Qo'l" obrazi jamiyatdagi adolatsizlik ramzi sifatida qo'llangan. Aslida real hayotda uchib yuradigan qo'l bo'lmaydi; bu yerda

<sup>6</sup> Darslik. Adabiyotnazariyasi asoslari/Dilmurod Quronov.- Toshkent:Akademnashr,2018.-480b. 98-bet.

fantastik unsur yetakchilik qilgan. Bunay tasvirida psixologik va tragik holatlarning sinkretik talqinlari yetakchilik qiladi. Nazar Eshonqul asarlarida shunday tipdagi ma'naviy va ruhiy majruh ruhdagi timsollar ko'p uchraydi. Nazar Eshonqul "Qo'l" obrazini yebto'ymas, "beozor", "bolalarning boshini silaydigan mehribon" deb kinoyali tarzda bayon etgan. O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov yozuvchi haqida shunday deydi: „Nazar Eshonqul mening nazarimda bizning o'zbek adabiyotida dunyo adabiyotlarining eng ilg'or oqimlari va usullarini chuqur o'rganagan va o'z asarlarida targ'ib qilgan“. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori Bahodir Xoliqov shunday fikrlarini bildirgan: „Nazar Eshonqul asarlari orqali Yevropa, shuningdek, Lotin Amerikasi yozuvchilarining asarlarini ham to'g'ri tushunish, ularning asarlarini anglash, his etish imkoniyatiga ham ega bo'lamiz“. Ijodkor F. K. Anittining "Hikoyalar va qissalar"ini, A. Kamyuning "Esselar"ini, Chexovning "Boloxonali uy" hikoyasini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ularning ijodi Nazar Eshonqul ijod laboratoriyasiga ta'sir ko'rsatgan. "Qo'l" obrazi ham XX asr nemis yozuvchisi Frans Kafka ijodidagi "Evrilish" qissasini yodga soladi. Ammo, Nazar Eshonqulning obraz yaratish uslubi milliy mentalitet ko'rinishi va folklorizm bilan uyg'unlashib ketgan. Chunki ikki oydan beri uchib yuruvchi detal "qo'l" obrazi orqali o'zbek insonlariga xos bo'lgan milliy taomlarga nisbatan nafsning oshgani va o'ch olish kabi illatlar qoralangan. Nazar Eshonqul obraz yaratishda g'arb asarlaridagi modern fantastika va o'zbekona milliy unsurlarni qorishiq holatda qo'llab ajoyib tasvirni kashf qila olgan. Hikoyadagi obrazlarning umumlashma jihatlari: "qishloqdoshlar hayotini muhokama qilish hamda boshqalarning "gaplari, g'iybatlarini" muhim deb hisoblash" deb ta'kidlangan. Shuningdek, Tersotalik odamlarning kundalik hayotiy muammolariga sabab ularning bilimsizligi va hunar egallamagani keltirilgan.

Badiiy obrazning metaforiklik bilan chambarchas bog'liq yana bir muhim xususiyati assotsiativlik hisoblanadi. Bunda tashqi dunyo ta'sirida ongimizda biror narsaning aksi paydo bo'lishi assotsiatsiya hosil qiladi. Masalan, gul deyish orqali "issiq havo harorati", gulzor" ko'z oldimizga keladi. "Qo'l" hikoyasida ham "tegirmonchi" deyilishi bilan "mehnatkash inson", "chang muhit" "qishloq" haqidagi o'y-fikrlar keladi.

Xulosa qilsak, bugungi kunda adabiy janrlardan eng keng tarqalayotgani bu hikoya janridir. Chunki globallashtirilgan davrda insonlarda yirik hajmli badiiy asarni o'qishga va tahlil qilishga fursat yetmayapti. Adabiyotning bosh mavzusi esa inson va uning ruhiyati hisoblanmoqda. Shuning uchun maqolada Nazar Eshonqulning hikoyalaridagi obrazlar tadqiq qilindi. Yozuvchi o'zining bir qancha hikoyalarida adabiyotning postmodernizm yo'nalishi unsurlarini amalda qo'llab ijod qilmoqda. "Maymun yetaklagan odam", "Tobut", "Bepayon osmon", "Qo'l" hikoyalari shular jumlasidandir. Uning obraz yaratishdagi psixoanaliz mahorati tahsinga loyiq. Badiiy asar konteksti shu qadar quyma, samimiy, tabiiy so'zlarni o'z ichiga olganki, kitobxon

beixtiyor personajning ruhiy olamini o'zida qayta his qila oladi. Adibning "Qo'l" hikoyasi obrazlari va uning xususiyatlarini o'rganish bilan bugungi kun kishisini ham anglash mumkin. Ushbu hikoyada konkretlik xususiyatiga ega realistik obrazlarga: Salom tegirmonchi, mulla Keldiyor, Panji muallim, Azim oqsoqol obrazlari kiradi. Metaforik sifatli fantastik obraz sifatida "Qo'l" obrazini keltirish mumkin. Assotsiativ xususiyatli obrazlarga uy va qishloqni aytish mumkin.

Muallif xarakteristikasi, portret, psixologizm, personaj nutqi kabi vositalar hikoyada inson obrazini to'laqonli yaratishga xizmat qilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Поэтика. Аристотел. Тошкент:1980.
2. Maqola. Lirikada obraz tasnifi va talqini(Abdulla Oripov she'riyati misolida)Boboqulova S. Uljon - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti/ Uzbekistan: Language and Culture 2023/ 1 (2) ISSN 2181-922X 121—136.121-122-bet.
3. Назарий поэтика масалалари. Жўрақулов У. Тошкент: Фафур Фулом,2015
4. Adabiyotshunoslik lug'ati. Quronov D va boshqalar. Toshkent: Akademnashr, 2013.
5. Darslik. Adabiyot nazariyasi Izzat Sulton, "O'qituvchi" NM1U, 2005.103-bet.
6. Darslik. Adabiyotnazariyasi asoslari/Dilmurod Quronov. Toshkent:Akademnashr,2018.-480b.90-93-95-bet.
7. Maqola. NAZAR ESHONQUL ASARLARIDA PSIXOLOGIK TASVIR VA ADABIY GALLYUSINATSIYA.Saidmuradova Soxiba Jolmurodovna Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
8. Cho'lieva N.Ijodkor mahorati va janr poetikasi (Nazar Eshonqul qissalari misolida)Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PHD) dis.avtoreferati. Qarshi 2020, 15-bet.
9. <https://tafakkur.net/nazar-eshonqul.haqida>
10. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/nazar-eshonqul-qo'l>.